

## **OMON MATJON IJODIDA QUSH OBRAZI**

**Jo'rayeva Mexrigiyo Quvondiq qizi**

BuxDU Adabiyotshunoslik yo'nalishi II bosqich magistiri

(O'zbekiston)

Tel: 998997123493

jorayevamehrigiyo96@gmail.com

### **Annotatsiya**

Maqlolada Omon Matjonning obraz tanlash mahorati ochib berilgan. Xususan, shoir ijodida uchraydigan qushlar obrazi tahlilga tortilgan.

### **Аннотация**

В статье раскрываются навыки выбора образа Омон Матжона. В частности, анализируется образ птиц, встречающейся в творчестве поэта.

### **Annotation**

The articlereveals Omon Matjon`s image selection skills. In particular, the image of birds encountered in the poet`s work is analyzed.

### **Kalit so'zlar**

Omon Matjon, obraz, mifologik obraz, tarixiy shaxs, tarixiy obraz, qush obrazi, timsol.

### **Ключевые слова**

Аман Матжан, образ, мифологический образ, историческая личность, исторический образ, образ птицы, эмблема.

### **Key words**

Omon Matchon, image, mythological image, historical figure, historical image, bird image, emblem.

Omon Matjon o'zbek adabiyotida o'z o'rni va o'z so'ziga ega ijodkor bo'lib, uning ijodini o'rganish va tahlil qilish bugungi kun adabiyotshunosligi oldida turgan katta vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning: "...biz xalqimizning ma'naviy kamol topishida madaniyat namoyondalarining ulkan xizmatlari borligini doimo minnatdorlik bilan e'tirof etamiz" <sup>1</sup>, - degan so'zları to'laligicha qalam ahliga ham dahldor nazarimizda. Omon Matjon adabiyotimizga o'tgan asrning 60-yillari oxiri va 70-yillari boshida o'z ijod namunalarini bilan kirib keldi. Shoirning "Haqqush qichqirig'i" poemasi; "Quyosh soati", "Yonayotgan daraxt" kabi she'riy to'plamlari; "Beruniy", "Pahlavon Mahmud" nomli dramatik dostonlari va "Gaplashadigan gaplar" nomli lirik qissasi o'zbek adabiyoti xazinasini boyitishda muhim o'rinn tutadi. Omon Matjon ijodida tarixga murojaat qilish ustuvorlik qiladi. Uning ijodida xalqning boshidan kechirgan tarixidan kelib chiqib natijani ro'yi rost ko'rsatish va kitobxonning "ko'zini ochish"ga harakat qilish g'oyalari asosiy o'rinn egallaydi. Shoirning obraz tanlash mahorati ham o'zgacha. Uning she'rlarida tarixiy shaxslar obrazi (Bibixonim, Mashrab, Jon Kennedy, Charli Chaplin ), mifologik obrazlar (Prometey, Xizr, samandar qush), real obrazlar( daraxt, ona, bola, qush) kabilalar ko'p uchraydi. Real obrazlar sirasiga kiruvchi qushlar obrazi shoir ijodida asosiy o'rinnlardan birini ifodalaydi. O'zbek xalq mifologiyasida qushlar dev, pari, pir ramzi bo'lib kelgan. Masalan, kabutarga pir ramzida qaralgan va kimning uyida kabutar in qursa, bola ochsa, o'sha uy egalari xursand bo'lishgan. O'zbek xalq dostonlarida esa qushlar xabarchi, baxt va omad belgisi hisoblangan. Masalan, "Kuntug'mish" dostonida Humo qushi obrazi keladi va u kimning boshiga qo'nsa, o'sha hukmdor etib tayinlanadi. Bu esa ushbu qushning baxt timsoli ekanligidan dalolat

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi, 2017. 4-avgust.

beradi. "Alpomish" dostonida ham g'oz obrazi keltiriladi va Alpomish bilan uning savol-javobidan qushning qanday ramzni ifodalashi ochiqlanadi:

"O'zginamni baland tog'dan juchirdim,  
Pok bo'lmasa ajal to'nin bichirdim,  
Nima qilay Xudoyimning hurmati,  
Bo'zlab qolgan Boybo'rining hurmati,  
G'arib bo'lgan yolg'izliging hurmati,  
Qilgan gunohingni endi kechirdim".<sup>2</sup>

G'ozning Alpomoshga bergan javobidan ko'rindiki, g'oz Alloh tomonidan Alpomishga yuborilgan yordamchi, elchi bo'lib, u qahramonga muhim xabarni yetkazuvchi mifologik obrazdir. Omon Matjon ijodida ham qushlar obrazi alohida o'rinni egallaydi. Shoир ijodida sof satiric yoki humoristik asarlar kam uchraydi. Mana shu yo'sindagi she'rlarining ko'pchiligidagi qushlar asosiy qahramon qilib olinadi. Xususan, "Xafa xo'roz", "Hoy qarg'avoy" kabi she'rlari shular jumlasidandir. Shoирning "Sena bo'yida qush bozori" she'rida erksizlik kuyylanadi. Fransiyaning Sena daryosi bo'yida tashkil qilingan qush bozorida qushlarning har xil turi borligi, ularning qaysisidir boshiga tushgan bu ishga ko'nikkan bo'lsalar, ba'zilarining bu ishdan afsusda ekanliklari tasvirlangan. Bilamizki qushlar timsolida ozodlik, hurlik ramzi yoki yuksaklikka parvoz qilish tushunchalari ifodalanadi. Shoирning bu she'rida esa qushlar erki cheklangan inson timsolida keladi. She'rnинг so'ngi bandini esa kulminatsion qism desak mubolag'a bo'lmaydi:

Qush bozorin kezgan kishi  
Bir hikmatni ko'p eslar:  
Qushlar uchun hamma yerda  
Bir xil ekan qafaslar...<sup>3</sup>

Ushbu misralarda qush xoh shoh saroyida bo'lsin, xoh faqirning uyida bo'lsin qafasda yashasa, demak, u uchun yashashining ma'nisi yo'q. chunki qushlar yuksaklarga parvoz etish uchun yaratilgan. Xuddi shunday inson ham qayerda bo'lishidan qat'iy nazar uning erki o'z qo'lida bo'lmasa, hamma yer u uchun birday qafas vazifazini o'taydi. "Fonteblo qasri tovuslari" she'rida ham qushlar obrazi qollaniladi. Tovuslar obrazi orqali ikki xil toifa insonlarni ochib beradi:

Qiziq, ichkarida ularga ne bor,  
O'rgamchik rizqningmi yo ilinjida?  
Yo bular ta'magir qavmdan yodgor,  
Tinchgina kun ko'rgan saroy pinjida?

Ushbu misralar orqali shoир jamiyatdan ajralgan va o'z manfaatini o'ylaydigan' moddiy manfaatlari yo'lida yuqori tabaqa vakillari pinjida yashaydigan insonlar toifasi kuyylanadi. Oxirgi bandda esa bosqinchilik, talon-tarjlik avj olgan zamonlarda go'zallik va ilmning bir chetda qolishi kabi g'oyalar aks etadi:

Bu qushlarni ko'rib, jonu tanimdan  
Bo'lak bezovtalik o'tdi va hadik:  
Bosqinchi zabitlar anjumanidan  
Doim tashqarida qolar go'zallik.<sup>4</sup>

Shoirning "Haqqush qichqirig'i" to'plamidan o'rinni olgan "Samandar" va "Muallaq to'rg'ay" she'rlarida ham qushlar obrazi orqali shoир o'z hayot xulosalari, fikr-g'oyalarini ifodalaydi. Xususan, "Muallaq to'rg'ay" she'rida sobiq mustabid tuzumning illatlari shahar qurish uchun uning poydevoirini yerdan emas, balki, fazodan qo'yishni taklif etgan, keksa ajdodlarning hayotiy xulosalariga qulq solmagan va bu orqali necha yillab umri samarsiz ketgan xalq, yer va samo o'rtasida muallaq qolgan avlod kuyylanadi. Quyidagi misralar esa bu fikrlarning tasdig'i bo'la oladi;

Daho to'rg'ay bir yuksakka

Chiqib turdi muallaq.  
"Ishga olg'a, tez bo'l"larga

<sup>2</sup> Alpomish. Aytuvchilar: Po'lkan shoир va Ergash Jumanbulbul o'g'li, yozib oluvchi: Muhammad Isa Ernazar o'g'li. Nashrga tayyorlovchi: To'ra Mirzayev, Zubayda Husainova-T., 1998, 131-bet.

<sup>3</sup> Matjon Omon. "Ming bir yog'du". T., 1998, 39-bet.

.<sup>4</sup> Matjon Omon. "Ming bir yog'du". T., 1998, 43-bet

To'lib ketdi hamma yoq.  
Bir kun o'tdi, hafta, o'n kun  
O'tdi shu xil necha oy.  
Daho to'rg'ay hamon ko'kda,  
Hamon so'rар suv va loy.  
Shuncha mehnat, qon, ter to'kdi,  
Lekin...biror samar yo'q.  
Ko'kda yolg'iz "me'mor" boru  
Shahardan hech asar yo'q.<sup>5</sup>

Shoir ijodi qushlar obrazi turli-tuman mazmun-mohiyatni ochib berish uchun qollaniladi. Bu orqali hayotda bo'layotgan har xil ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlarga munosabatini bildiradi. "Shoir yozgan haqiqatlarni hayolidan emas, balki hayotdan oladi. Shuning uchun ham nuqsonlar ildizini hayot bag'ridan izlash, undan keyin ijodkorning haq yoki nohaqlik darajalarinianiqlash maqsadga muvofiq keladi. Shunday ekan Omon Matjon she'rlarida fosh etilayotgan "to'tilar", "urishqoq, pitrak" bedanalar, o'z qadrini bilmaydigan, "bezbet, beburd, isqirt, yalqov" qushlar timsolidagi shaxslarning borligi haqiqat".<sup>6</sup> Bir so'z bilan aytganda Omon Matjon obraz tanlash mahorati juda yuqori, bir obraz orqali turli xil xarakterlarni ifodalab bera oladigan qalami o'tkir ijodkordir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatning rivojlanishi – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi, 2017. 4-avgust.
2. Alpomish. Aytuvchilar: Po'lkan shoir va Ergash Jumanbulbul o'g'li, yozib oluvchi: Muhammad Isa Ernazar o'g'li. Nashrga tayyorlovchi: To'ra Mirzayev, Zubayda Husainova-T., 1998, 131-bet.
3. Matjon Omon. "Ming bir yog'du". T., 1998, 39-bet
4. Matjon Omon. "Ming bir yog'du". T., 1998, 43-bet
5. Matjon Omon. "Haqqush qichqirig'i". T., 1979, 46-bet
6. Jumaboyeva J. "XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati". T., 2004, 242-bet.

<sup>5</sup> Matjon Omon. "Haqqush qichqirig'i". T., 1979, 46-bet.

<sup>6</sup> Jumaboyeva J. "XX asr o'zbek she'riyatida psixologik tasvir mahorati". T., 2004, 242-bet.